

Deutsche Forschungsgemeinschaft xalqaro hamkorlik direktori doktor Yorn Achterberg boshchiligidagi delegatsiya tashrifi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga DFG (Deutsche Forschungsgemeinschaft) xalqaro hamkorlik direktori doktor Yorn Achterberg boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi. Mehmonlarni FA vitse-prezidentlari Sirojiddin Mirzayev va Shahlo Turdikulova kutib oldi.



Uchrashuvda DFG (Deutsche Forschungsgemeinschaft) tomonidan e'lon qilingan UDIF-HAW (Universities of Applied Sciences – Networking for Research) tashabbusi Germaniyadagi amaliy fanlar universitetlari (HAW) va xalqaro tadqiqotchilar o'rtasida ilmiy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilganligi muhokama qilindi. Bu dastur HAW tadqiqotchilarini xalqaro sheriklar bilan aloqalar o'rnatish, ilmiy loyihalarni birgalikda amalga oshirish va tadqiqot infratuzilmasini mustahkamlashga yordam beradi.

UDIF-HAW tashabbusining asosiy yo'nalishi:

Virtual tanishuv tadbirlari: HAW tadqiqotchilari va xalqaro hamkorlar o'rtasida mavzuli virtual uchrashuvlar tashkil etiladi. Bu tadbirlarda ishtirokchilar o'z tadqiqot sohalari va loyiha g'oyalarini taqdim etib, hamkorlik imkoniyatlarini muhokama qilishadi.

Mavzuli hamkorlik: UDIF-HAW tashabbusi doirasida turli mavzularda hamkorlik tadbirlari o'tkaziladi, jumladan: sog'liqni saqlash va atrof-muhit, raqamlashtirish va aqlli texnologiyalar, barqaror shahar rivojlanishi, qayta tiklanadigan energiya manbalari va resurslarni boshqarish.

Masalan, 2025-yilda O'zbekiston va Qozog'iston tadqiqotchilariga ushbu mavzularda loyihalar taqdim etish uchun tanlov e'lon qilingan.

casib.eu